

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING QIMOR VA TAVAKKALCHILIKKA ASOSLANGAN O'YINLARGA RUJU QO'YGAN YOSHLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATI

Турсунова Мархабо Баходировна

*Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси Хуқуқбузарликлар профилактикаси
фаолияти кафедраси ўқитувчиси, подполковник*

Akbarova Mavludaxon Ulug'bek qizi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarga ruju qo'ygan yoshlar bilan ishlashda profilaktika inspektori faoliyati keng qamrovli tahlil qilingan. Maqolada profilaktika inspektori faoliyatining huquqiy asoslari, vakolatlari va majburiyatlari, qimor o'yinlarining yoshlar psixikasiga va ijtimoiy holatiga ta'siri, psixologik qaramlik mexanizmlari (ludomaniya), amaliy tahlil va statistika, hududlar bo'yicha taqsimot, yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar dinamikasi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: qimor o'yinlari, tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar, yoshlar, profilaktika inspektori, huquqbuzarliklar profilaktikasi, onlayn qimor, individual profilaktika, ijtimoiy profilaktika.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli illatlar soni ortib bormoqda. Ayniqsa, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarning internet tarmoqlari orqali keng tarqalishi yoshlar tarbiyasi, ularning ruhiy holati va ijtimoiy faolligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Avvallari qimor o'yinlari ma'lum joylarda yoki yashirin muassasalarda tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunda mobil telefonlar, internet saytlar, telegram botlar va turli elektron platformalar orqali osongina amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarga (jumladan, onlayn qimor, bukmekerlik garovlari, totalizatorlar, virtual o'yinlar) ruju qo'yish yoshlar orasida jiddiy ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy muammoga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasida bu muammoni hal etishda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining faoliyati muhim o'rin tutadi.

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar yoshlarning moddiy qaramlikka tushib qolishiga, ruhiy tushkunlikka uchrashiga, oilaviy nizolar kelib chiqishiga hamda jinoyatchilikning ortishiga sabab bo'layotgan omillardan biri hisoblanadi. Shu bois mazkur yo'nalishda profilaktika inspektorlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Profilaktika inspektori hududdagi yoshlarning muammolarini o'rganadi, huquqbuzarliklarning oldini oladi, yoshlarni salbiy oqimlardan himoya qilish choralari amalga oshiradi va ular bilan yakka tartibda ishlaydi.

Qimor o'yinlari — tavakkalchilik asosida tashkil etilib, moddiy manfaat orttirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Bunday o'yinlarda insonning yutishi yoki yutqazishi tasodifga bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunda qimor o'yinlarining onlayn kazino, virtual poker, totalizator,

sport betting, elektron lotereya va mobil ilovalar ko‘rinishlari keng tarqalgan. Ayniqsa, internet orqali anonim tarzda pul tikish imkoniyati yoshlarni ushbu o‘yinlarga qiziqirmoqda.

Yoshlarning qimor o‘yinlariga ruju qo‘yishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi. Jumladan, oiladagi nosog‘lom muhit, ota-onalar nazoratining sustligi, moddiy muammolar, ishsizlik, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etilmaganligi, psixologik tushkunlik va internet ta‘siri asosiy sabablar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda qimor o‘yinlarining reklama qilinishi ham yoshlar orasida ushbu illatning kengayishiga olib kelmoqda.

Qimor o‘yinlariga berilgan yoshlar ko‘pincha o‘qish va mehnatdan uzoqlashadi, tez boyish istagida noqonuniy yo‘llarga kirib qoladi. Natijada firibgarlik, o‘g‘rilik, talonchilik kabi jinoyatlarga moyillik kuchayadi. Shuningdek, qimor inson ruhiyatiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Yutqazgan shaxs yana yutib olish ilinjida qayta o‘yinga kiradi va asta-sekin qimor qaramligiga tushib qoladi. Bu esa depressiya, tajovuzkorlik, asabiylik va hatto suitsidal holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar eng avvalo insonning moddiy ahvoriga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, doimiy yutqazishlar natijasida qarzga botish; oilaviy budjetning izdan chiqishi; kredit va noqonuniy qarz olish holatlari; ish faoliyatiga e‘tiborning pasayishi kabilar. Ko‘pchilik yo‘qotilgan pulni qaytarib olish umidida yana pul tikishi qarz spiraliga olib keladi. Bu jarayon psixologik jihatdan shunday qurilganki, inson kichik yutuqlardan ruhlanib, ko‘proq pul tikishga moyil bo‘lib qoladi.

Bunday o‘yinlarning asosiy xususiyati – tez boyish illyuziyasini yaratishdir. Inson kichik yutuqlardan ruhlanib, ko‘proq pul tikishga moyil bo‘ladi. Natijada psixologik qaramlik yuzaga keladi, stress, xavotir va depressiya kuchayadi, mantiqiy fikrlash susayadi.

Qimor o‘yinlarining zararli oqibatlari faqat individual emas, balki keng ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Har bir qaram odam kamida yana 6 kishiga salbiy ta‘sirini o‘tkazadi (oilasi, yaqinlari). Bundan tashqari, oilaviy ajrimlar, zo‘ravonlik, firibgarlik va o‘g‘irlik kabi jinoyatlar ham qimor sababli yuz bermoqda.

Yoshlarda depressiv holatlarning namoyon bo‘lishining asosiy sabablaridan biri qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar hisoblanadi va uni oldini olish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Qimor o‘yinlariga qaram yoshlarda depressiya, tashvish va boshqa ruhiy kasalliklar tez-tez uchraydi. Bu holatlar professional psixologik yordamni talab qiladi.

O‘zbekistonda tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni tartibga solish sohasida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Prezidentning Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoniga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvardan internet tarmog‘ida tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni tashkil etish va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya asosida ruxsat berildi.

Litsenziya asosida tashkillashtirilgan lotereya, internet tarmog‘idagi o‘yinlar va bukmekerlik garovlarida faqat 18 yoshga to‘lgan fuqarolar qatnashishi mumkin. Bu cheklov juda muhim, chunki 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar miyasi hali to‘liq shakllanmagan va ular psixologik qaramlikka ko‘proq moyil bo‘lishadi.

O'zbekiston Respublikasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarning oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo'yicha mustahkam huquqiy baza yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, sog'lom avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni profilaktika inspektorining mahalla hududida huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablarini o'rganish, shart-sharoitlarni bartaraf etish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan manzilli ishlash vositalarini belgilab beradi.

Profilaktika inspektorining asosiy vazifalaridan biri hududdagi vaziyatni muntazam o'rganishdan iboratdir. U qimor o'yinlariga moyil bo'lgan yoshlarni, noqonuniy internet klublarni, yashirin tavakkalchilik faoliyatlarini aniqlaydi va ularning oldini olish choralari ko'radi. Bu borada mahalla fuqarolar yig'ini, yoshlar yetakchilari, ta'lim muassasalari va jamoatchilik bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Profilaktika inspektori yoshlar bilan individual profilaktik suhbatlar ham olib boradi. Bunday suhbatlarda qimorning salbiy oqibatlari, huquqiy javobgarlik, sog'lom turmush tarzining ahamiyati va internet xavfsizligi haqida tushuntirish ishlari amalga oshiriladi. Ayniqsa, yoshlarning muammolarini tinglash, ularni ruhiy qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'l ko'rsatish samarali profilaktika usullaridan biri hisoblanadi.

Qimor o'yinlariga muntazam ravishda jalb etilgan yoki huquqbuzarlikka moyil bo'lgan yoshlar profilaktik hisobga olinadi. Ular bilan muntazam ravishda nazorat ishlari olib boriladi, psixologik yordam ko'rsatiladi hamda ijtimoiy moslashtirish choralari amalga oshiriladi. Bunday yoshlarni sport, kasb-hunar, tadbirkorlik va madaniy tadbirlarga jalb qilish orqali ularni foydali faoliyat bilan band qiladi.

Profilaktika inspektorining faoliyatida ota-onalar bilan ishlash ham muhim o'rin tutadi. Chunki ko'plab hollarda yoshlarning qimorga berilishi oiladagi e'tiborsizlik va nazoratning sustligi bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli profilaktika inspektori ota-onalarga farzand tarbiyasi, internetdan foydalanish nazorati, yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil etish va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar beradi.

Ta'lim muassasalari bilan hamkorlik ham profilaktika faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalarida davra suhbatlari, seminar-treninglar, profilaktik uchrashuvlar va huquqiy targ'ibot tadbirlari tashkil etiladi. Bu orqali yoshlarning huquqiy savodxonligi oshiriladi va ularning zararli illatlarga qarshi immuniteti shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (MJKtK) 191-moddasi ("Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar")ga asosan "Qonunga xilof ravishda pul, qimmatbaho qog'ozlar, ashyolar yoki boshqa mulkiy manfaatlarni yutib olish maqsadida tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarda (shu jumladan, onlayn bukmekerlik va totalizatorlarda) bevosita ishtirok etish – o'yin buyumlarini, shuningdek, o'yinga tikilgan hamda yutuq bo'lgan pullar, ashyolar va boshqa qimmatliklarni musodara qilgan holda, bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 3 baravardan 5 baravargacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi." Profilaktika inspektori ushbu modda bo'yicha ma'muriy bayonoma rasmiylashtirish

orqali shaxsni rasmiy ravishda davlat nazoratiga oladi va bu keyingi og'irroq oqibatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Umumiy profilaktika va raqamli axborot — mahalla hududida qimor o'yinlariga nisbatan salbiy ijtimoiy immunitetni shakllantirishdir. Bunda profilaktika inspektori mahalla yettiligi (mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, soliq inspektori va ijtimoiy xodim) bilan birgalikda hududdagi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ijtimoiy portretini o'rganadi. Ishsiz, ta'limdan uzilib qolgan va nosog'lom muhitdagi oilalar farzandlari alohida nazorat xaritasiga kiritiladi.

Profilaktika inspektori maktablar va mahalla markazlarida "Bukmekerlik — boylik emas, balki jinoyatga yetaklovchi tuzoq" mavzusida davra suhbatlari o'tkaziladi. Unda bukmeckerlik kompaniyalarining matematik va algoritmik tizimi (Randon/yutuqni sun'iy cheklash) foydalanuvchini mag'lubiyatga mahkum etishi ilmiy asosda tushuntiriladi, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarning noqonuniy ekanligi hamda uning salbiy va huquqiy oqibatlarini tushuntiradi.

Profilaktika hisobga olish va ogohlantirish: Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarga ruju qo'ygan yoshlar bilan ichki ishlar organi tayanch punktida rasmiy suhbat o'tkaziladi. Shaxsga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJKtKning 191-moddasi talablari tushuntirilib, kelgusida bu harakatni takrorlasa, jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida rasmiy ogohlantirish xati rasmiylashtiriladi.

Ludomaniya tibbiy jihatdan ruhiy qaramlik bo'lganligi sababli, faqatgina ma'muriy ta'sir chorasi kutilgan natijani bermaydi. Profilaktika inspektori sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda bunday yoshlarni hududiy psixonevrologik dispanserlarning tibbiy psixologlari va psixoterapevtlari qabuliga yo'naltirish choralari ko'radi.

Dunyo bo'yicha 450 mln odam qimorning zararli ta'sirini his qilmoqda, kamida 80 mln odam to'liq qaramlik holatida. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, onlayn qimor o'yinlariga qaramlik alkogolizm yoki giyohvandlik bilan bir xil darajada xavfli bo'lishi mumkin.

O'zbekiston bu muammoni bartaraf etish uchun qonunchilikni takomillashtirish, profilaktika ishlari va psixologik yordam ko'rsatish tizimini yaratish bo'yicha kompleks choralarni ko'rishmoqda. Jumladan, 2023-2024-yillar davomida Yoshlar siyosati va sport vazirligi tizimida yoshlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-iqtisodiy xizmat turlari 1,5 barobargacha oshirildi. Sport sohasini raqamlashtirish bo'yicha 24 ta yo'nalishdagi axborot tizimlarini o'z ichiga olgan ERP Sport yagona elektron boshqaruv tizimi ishga tushirildi.

Bugungi kunda internet orqali qimor o'yinlari keng tarqalganligi sababli profilaktika inspektori kiberxavfsizlik yo'nalishida ham faol ish olib borishi zarur. Noqonuniy saytlar, telegram kanallar va mobil ilovalar orqali yoshlarni qimorga jalb qilish holatlarini aniqlash hamda oldini olish muhim vazifalardan biridir. Shu maqsadda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashuvchi bo'linmalar bilan hamkorlik olib borilishi yo'lga qo'yilmoqda.

Profilaktika inspektori faoliyatida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda profilaktika kampaniyalari o'tkazish, onlayn maslahatlar berish, mobil ilovalar orqali yoshlar bilan aloqa o'rnatish.

Profilaktika inspektori o'z hududidagi internet-provayder xizmatlarini ko'rsatuvchi kompyuter markazlarini muntazam tekshiradi. Voyaga yetmaganlarning tungi vaqtda (soat 22:00 dan keyin) ota-onasiz ushbu zallarda bo'lishi taqiqlanadi. Kompyuter ekranlarida bukmekerlik saytlari ochiqligi aniqlangan taqdirda, tadbirkorga va ota-onalarga nisbatan qat'iy ma'muriy choralar ko'riladi.

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarga qaram bo'lib qolgan yoshlar bilan ishlashda profilaktika inspektori faoliyati faqatgina jazolovchi yoki ma'muriy jarima qo'llovchi funksiyadan iborat bo'lib qolmasligi zarur. Bugungi kun inspektori — bu ham huquqshunos, ham kiber-tahlilchi, ham yuqori malakali psixologdir.

Profilaktika inspektori faoliyatining samaradorligi jamiyatning umumiy xavfsizligi va yosh avlodning sog'lom rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Davlat organlari, mahalla institutlari, ta'lim muassasalari, sport tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining birlashgan kuchlar bilan bu muammoni hal etish mumkin.

Tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar qisqa muddatli zavq berishi mumkin, ammo ularning uzoq muddatli oqibatlar juda og'ir: psixologik qaramlik, moliyaviy yo'qotishlar va ijtimoiy muammolar. Shuning uchun har bir inson ongli ravishda bunday o'yinlardan uzoq turishi, sog'lom va barqaror hayot tarzini tanlashi zarur.

Shuni esda tutish kerakki, onlayn qimor — daromad manbai emas, balki yo'qotish mexanizmi.

Xulosa qilib aytganda, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar yoshlar tarbiyasiga jiddiy xavf tug'diruvchi salbiy illatlardan biri hisoblanadi. Mazkur illatning oldini olishda profilaktika inspektorining o'rnini nihoyatda muhimdir. Profilaktika inspektori yoshlarni huquqbuzarliklardan qaytarish, ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish, ma'naviy va ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali jamiyat barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois bu boradagi profilaktik ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, davlat organlari, mahalla, ta'lim muassasalari va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2014-yil 14-avgust). — Lex.uz, 2014.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — Lex.uz, 2024.
4. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari faoliyati to'g'risida Nizom (2018-yil 22-fevral). — IIV buyrug'ligi, 2018.

5. IIV Akademiyasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" (darslik). — Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti, 2023.

6. IIV Akademiyasi "Yoshlar psixologiyasi va qimor qaramligi" (monografiya). — Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti, 2024.